

NOTARIUS - NIZOLAR BO'YICHA MEDIATOR VAZIFASINI
BAJARADI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7631787>



ELSEVIER



Received: 10-02-2023

Accepted: 11-02-2023

Published: 22-02-2023

Sh.B.Xodjayeva

Toshkent shahri Uchtepa tumanida Xususiy amaliyot
bilan shug'ullanuvchi notariy

O'.R.Muxtorov

Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi
notarius B.Sh.Xodjayeva stajori



Abstract:

Keywords:

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Mamlakatda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda ularning muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu sohada islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlarga aylantirish lozimligini taqozo etadi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, nizolarni hal qilishning muqobil imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, sudlarda ish hajmini maqbullashtirishda mediatsiya instituti, hakamlik sudlari va xalqaro arbitrajlarining rolini tubdan oshirish zaruriyatidan yangi institutlar joriy etilmoqda.

Bugungi kunda tez tez qulog'imizga chalinib turgan ammo biz hali tushunib yetmagan "MEDIATSIYA nima va uni amalga oshiruvchi shaxs mediator o'zi kim?

Bu so'z atrofida esa, Mediatorning vazifasi nimalardan iborat? U qanday nizolarni murosaga keltirish bilan shug'ullanadi?", degan o'rinli savlollar paydo bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Mediatsiya to'g'risida»gi Qonunida mediatsiya bu kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usuli ekanligi, mediator – mediatsiyani amalga oshirish uchun taraflar tomonidan jalb etiladigan shaxsligi ko'rsatilgan.

Bu kabi shaxslar jamiyat uchun nimaga kerakligini esa jamiyatdagi oddiy holatlar asosida isbotlash mumkin.

Kun ora mahallamizda, qo'ni-qo'shnimiz yoki bevosita o'zimiz oilaviy mojarolarga, mulkiy nomulkiy masalalarga duch kelamiz.

Eng ko'p tarqalgan holatlar o'zaro ishonch bilan boshlagan ishimiz, qarz berish, tekinga uy berish yoki meros mulkimizni talab qilish bilan bog'liq holatlarda qarindoshlar orasida er-xotin o'rtasida nizolar kelib chiqmoqda. Nizolar esa jiddiylashib, sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishlariga va vaziyat yanada yomonlashib qarindoshlar farzandlar o'rtasida sovuqchilik tushishiga to'g'ri kelmoqda.

Bu albatta ko'ngilni xira qiladigan salbiy holatdir. Ammo, bugungi kunda bu kabi mojarolarni aniq hal qilish uchun ko'rsatma beruvchi tizim ish boshladi.

Avvalo, joriy yildan boshlab xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga mulkiy va meros masalalarida nizolarni sudgacha hal qilish – mediator vazifasini bajarish vazifasi yuklatilganini qayd etmoqchiman.

Shu o'rinda, aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining joriy yil 2 maydagi buyrug'iga "Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar" ilovasining 1-bandi "mediator vazifasini bajaradi" qo'shimchasi bilan to'ldirilgani ham bejizga emas.

Fuqarolar, er va xotin, oila a'zolari o'rtasidagi mojarolar ko'pincha mulkiy nizolar ko'rinishida bo'ladi. Bu O'zbekiston Respublikasida mediatsiyani qo'llash doirasi "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun bilan aniq belgilab qo'yilgan. Xususan qonunning 3-moddasiga ko'ra, quyidagilarga nisbatan – fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq kelib chiqadigan va yakka mehnat nizolariga hamda oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiya tartib-taomillari qo'llaniladi.

Notarius fuqarolik-huquqiy munosabatlar, shu jumladan mulkiy va meros masalalari bo'yicha o'zaro maqbul qaror qabul qilish uchun taraflarning ixtiyoriy roziligi asosida nizoda mediator sifatida ish yuritadi.

Notarius faqat notariuslar tomonidan amalga oshirilgan notarial harakatlar yuzasidan kelib chiqqan nizolar bo'yicha mediator vazifasini bajaradi.

Notarius quyidagi nizolar bo'yicha mediativ kelishuvni tasdiqlaydi:

oilaviy nizolar (er-xotinning mol-mulkini bo'lish);

meros bilan bog'liq nizolar (meros mol-mulkini taqsimlash, merosxo'rlar o'rtasida ulushlarni bo'lish va boshqalar);

boshqa nizolar (pul majburiyatlari, mulkni topshirish majburiyatlari, qarz majburiyatlari, garov munosabatlari bo'yicha majburiyatlar). Mediatsiya nizolarni

hal qilishning boshqa usullari, xususan nizolarni sud tartibida hal qilishdan o'zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi.

Birinchi, nizolarni mediatsiya vositasida hal qilish sud tartibiga nisbatan ancha qisqa muddatlarda amalga oshiriladi.

«Mediatsiya to'g'risida»gi Qonunning 23-moddasida mediator va taraflar mediatsiya tartib-taomili o'ttiz kundan ortiq bo'lmagan muddatda tugallanishi uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rishi kerakligi, zarur bo'lgan taqdirda, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish muddati taraflarning o'zaro roziligi bilan o'ttiz kungacha uzaytirilishi mumkinligi belgilangan.

Ushbu moddada mediatsiyani amalga oshirishning eng uzoq muddatlari belgilangan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda mediatsiyani amalga oshirish muddati bir ish kunini, ba'zan bir necha soatlarni tashkil etadi.

Xususan, 2018 yil 30 noyabrda holatiga ko'ra, Singapur mediatsiya markazida tomonlar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilishi bilan yakunlangan ishlarning 90%dan ortig'i bir ish kunida hal qilingan.

Ikkinchi, mediatsiya tartib-taomillari qo'llanilganda ishga taalluqli barcha ma'lumotlar mutlaqo sir tutiladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi «Mediatsiya to'g'risida»gi Qonunining 6-moddasida mediatsiya ishtirokchilari mediatsiya jarayonida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni ularni taqdim etgan mediatsiya tarafining, uning huquqiy vorisining yoki vakilining yozma rozilgisiz oshkor qilishga haqli emasligi, mediatsiya ishtirokchilari o'zlariga mediatsiya jarayonida ma'lum bo'lib qolgan holatlar haqida guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emasligi, shuningdek ulardan mediatsiyaga taalluqli axborotni talab qilib olish mumkin emasligi, 25-moddasida mediatsiyani qo'llash chog'ida mediator taraflarning rozilgisiz nizoning mohiyati bo'yicha oshkora bayonotlar berishga haqli emasligi, 27-moddasida agar mediator taraflarning biridan mediatsiyaga taalluqli axborotni olgan bo'lsa, u bu axborotni faqat uni taqdim etgan tarafning roziligi bilan boshqa tarafga oshkor qilishi mumkinligi belgilangan. Maxfiylik prinsipi ayniqsa oilaviy nizolar hamda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarda muhim ahamiyatga ega.

Chunki, biron-bir tadbirkorlik sub'ektining boshqa bir tadbirkorlik sub'ekti yoxud mijoz bilan nizolashayotganligining oshkor bo'lishi ushbu tadbirkorlik sub'ektining ishchanlik obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi, potensial mijozlar hamda hamkorlarning unga bo'lgan ishonchi yo'qolishi, u bilan shartnomaviy munosabatga kirishishdan o'zlarini tiyishiga olib kelishi mumkin. Nizoni mediatsiya usulida hal qilish bunday salbiy oqibatlardan ishonchli himoya bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, mediatsiya vositasida hal qilinadigan nizolarda har ikkala taraf uchun ham maqbul kelishuvga erishiladi. Sud tartibida ko'riladigan nizolar bo'yicha bir taraf foydasiga chiqarilgan qaror ikkinchi tarafning ziyoniga xizmat qiladi. Natijada bir ishni ko'rish appelyasiya, kassatsiya, nazorat tartiblari bilan oylab, hatto yillab cho'zilib ketishi mumkin. Mediatsiyani qo'llashda taraflar ixtiyoriy ravishda mediativ kelishuv tuzish orqali nizoni hal qilish yo'llari va usullari, kelishuvda belgilangan majburiyatlarni bajarish muddatlari hamda ushbu majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlarini ham belgilab qo'yishlari mumkin.

Xususan, «Mediatsiya to'g'risida» gi Qonunning 29-moddasida mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish natijalari bo'yicha taraflar kelib chiqqan nizo yoxud majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o'zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, taraflar o'rtasida yozma shaklda mediativ kelishuv tuzilishi, mediativ kelishuv uni tuzgan taraflar uchun majburiy kuchga ega bo'lib, ushbu kelishuv unda nazarda tutilgan tartibda hamda muddatlarda taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda bajarilishi, mediativ kelishuv bajarilmagan taqdirda taraflar o'z huquqlari himoya qilinishini so'rab sudga murojaat etishga haqliligi, mediativ kelishuv bajarilmasligining oqibatlari taraflar tomonidan ushbu kelishuvning o'zida belgilab qo'yilishi mumkinligi belgilangan.

Nizolarni hal qilishda mediatsiyani qo'llashning keng yoyilishi sudlar uchun ham foydadan xoli bo'lmaydi. Ish hajmining noreal darajada ko'pligi barcha davlatlar sudlari uchun umumiy muammo hisoblanadi.

Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish uchun taraflar o'zaro kelishuvga ko'ra notarial harakatni amalga oshirgan notariusga yoki boshqa notariusga murojaat qilishi mumkin.

Manfaatdor taraf nizoning ikkinchi tarafiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmunini izohlagan xolda notariusga kelishuv tartib-taomilini qo'llash haqida ariza bilan murojaat etadi. Notarius qonun hujjatlarida belgilangan muddatda arizani o'rganib chiqib, taraflar, nizo predmeti, o'tkazilish joyi va vaqti ko'rsatilgan nizoni mediatsiya yo'li bilan hal etish xaqida taraflarga xat yuboradi.

Agar taraflar notariusga nizolashayotgan masala bo'yicha mediatsiyani qo'llash haqida birgalikda murojaat etsa, notarius ulardan ushbu masala bo'yicha mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishga roziligi xaqidagi oddiy yozma shakldagi kelishuvni taqdim etishni so'raydi.

Taraflar mulkiy yoki meros masalasi bo'yicha yuzaga kelgan nizoni notarius orqali hal etishda notariusga shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini, nizo kelib chiqishiga sabab bo'lgan notarial harakat asli yoki nusxasi, ushbu nizoni hal etish uchun mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi oddiy yozma shaklda tuzilgan kelishuvni taqdim etadi.

Mediatsiya tartib-taomili mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida taraflar tomonidan kelishuv tuzilgan kundan e'tiboran boshlanadi.

Mediatsiya tartib-taomili amalga oshirilayotganda notarius taraflarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini cheklashga, ularning u yoki bu qarorni qabul qilishda bosim o'tkazishga haqli emas.

Notarius mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish chog'ida bir vaqtning o'zida ham taraflarning barchasi bilan, ham taraflarning har biri bilan alohida-alohida uchrashuvlar o'tkazadi, ularga nizoni hal etishga doir og'zaki va yozma tavsiyalar beradi, mediatsiya boshlanguniga qadar mediatsiya taraflariga mediatsiyaning maqsadini, shuningdek ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, taraflarning o'zaro fikr va takliflarini almashishlarini ta'minlaydi, taraflar tomonidan nizoni tartibga solish turini taklif qiladi.

Mediatsiyani amalga oshirish muddati mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risidagi kelishuvda taraflar tomonidan ixtiyoriy belgilanadi. Bunda muddat o'ttiz kundan oshmasligi lozim. Zarur hollarda taraflarning o'zaro roziligi bilan ushbu muddat o'ttiz kungacha uzaytirilishi mumkin.

Taraflar mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish natijalaridan kelib chiqadigan nizoni yoxud majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o'zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, notarius taraflar o'rtasida tuzilgan mediativ kelishuvni tasdiqlaydi.

Mediativ kelishuv notariusga kamida uch nusxada taqdim etiladi va notarial tartibda tasdiqlanadi, ulardan bittasi notarial idorada saqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, nizolarni hal qilishning muqobil usuli sifatida mediatsiya xalqaro tajribada sinovdan o'tib, o'zining bir qator afzalliklari bilan dunyo mamlakatlari milliy qonunchiligidan munosib o'rin egallab kelmoqda.

Ko'plab davlatlar mediatsiya to'g'risidagi o'zlarining qonunlarini qabul qilishdi va mamlakat doirasida hamda xalqaro miqyosdagi mediatsiya markazlarini tashkil etishdi.

Bunga Singapur, Buyuk Britaniya, Hindiston kabi davlatlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu jarayondan O'zbekiston ham chetda qolmadi. Xususan, 2018 yil 12 iyunda «Mediatsiya to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. 2019 yil 31 yanvarda Adliya vazirining 54-mh-son Buyrug'i bilan tasdiqlangan «Mediatorlarni tayyorlash dasturi» doirasida professional mediatorlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi. Mediatsiya O'zbekiston qonunchiligida yangi institutlardan ekanligini hisobga olgan xolda ushbu institutni yanada rivojlantirish uchun bajarilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar mavjuddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyulda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risida"gi O'RQ-482-sonli Qonuni
3. Yuridik fan va huquqni qo'llash amaliyotining dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I jild / Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. M.M. Mamasiddiqov. - T.: "Lesson press".2020. - 450 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirining 2019 yil 31 yanvarda Adliya vazirining 54-mh-son Buyrug'i bilan tasdiqlangan «Mediatorlarni tayyorlash dasturi»
5. <http://old.lex.uz/docs/4407205>
6. <https://www.mediation.com.sg/smc-training/>
7. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.